



O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi
Namangan viloyati Xalq ta`limi boshqarmasi
Pop tumani Xalq ta`limi muassasalari faoliyatini
metodik ta`minlash va tashkil etish bo`limiga qarashli
10-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Do`stnazarova Nargizaning

2-sinflar uchun o`qish fanidan

“K U Z”

mavzusida tuzgan

bir soatlik

Dars ishlanmasi

Biz bugun barpo etayotgan yangi hayot, yangi jamiyatni, avvalom bor o'zimiz uchun, unib o' sib kelayotgan, bugun boshlangan ishlarimizni ertangi davom ettirishga qodir bo'lgan bolalar uchun qurmoqdamiz.

I. A. Karimov

Ushbu dars ishlanma "Dars muqaddas" tadbiri asosida yaratilgan bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchilari fanidan dars beraayotgan o'qituvchilar uchun foydalanishga mo'ljallangan.

Tuzuvchi: N.Do'stnazarova Pop tamani 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlangich sinf o'qituvchisi

Taqrizchilar:

- Z.Hudoyberganova** - 10-sonli umum ta'lim maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari. Oliy toifali o'qituvchi.
- N.Eshmatova** - Pop tumani XTMFMTT etish bo'limi boshlang'ich ta'lim uslubchisi
- M. Payziboyeva** - Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi metodika markazi boshlang'ich ta'lim uslubchisi
- S.Nuriddinova** - NVPKQTMOI maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası mudiri
- Z. Mo'minov** - Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi metodika bo'limi boshlig'i

Ushbu dars ishlanma Viloyat metodika markazi huzuridagi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv metodika kengashining

"____" _____-yildagi №____-sonli qarori bilan tasdiqlanib foydalanishga tavsiya etildi.

Z.Xudoyberganova

O'qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ta'limning muvoffaqiyatli va samarali bo'lishining garovidir.

Dars bu sinfda aniq maqsadlarni ko'zlab, belgilangan vaqt oralig'ida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar uchun o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishidir.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi shartli ravishda ikkiga bo'linadi:

O'qituvchining o'z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi

O'qituvchining har bir darsga kundalik tayyorgarligi

**Bir soatlik yaxshi dars,
buyuk bir san'at asaridir.**



2-sinf

Mavzu: Kuz

Dars maqsadlari :

Ta'limiy maqsad:

Kuz fasliga doir tushunchalarini kengaytirish, ifodali, ravon o`qish ko`nikmalarini shakllantirish. O`quvchilarning o`zi yashayotgan yurt, uning g`o`zal va maftunkor tabiati , boyligi zahmatkash ota-onalarining kuzgi mehnati haqidagi bilimlarini boyitish.

Tarbiyaviy maqsad :

O`quvchilarda ona-Vatan , tabiatga bo`lgan mehr-muhabbat , tabiat bergan in`omlarni isrof qilmaslik, tejamkorlikka undash, sog`lom turmush tarzini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad :

O`quvchilarning ifodali , ravon o`qish ko`nikmalarini rivojlantirish va yil fassllari , ularning belgilari haqidagi fikrlarini o`stirish .

Dars metodi :

Inter faol ,aqli hujum, klaster, ko`rgazmali, tushuntirish, suhbat.

Dars turi :

Yangi bilim beruvchi.

Darsning jihozi :

Darslik , darsga doir rasmlar, test savollari.

Darsning borishi:

1.Darsni tashkil qilish :

O`quvchilar bilan salomlashib , navbatchi ahborotini tinglash , davomatni aniqlash.

2.O`tgan mavzuni so`rash:

1) Uyga vazifa “Oltin kuz” she`rini yod olish. O`quvchilardan she`rni so`rab baholash.

2)Interfaol metoddan foydalanish:

“Sabzi terish” o`yini orqali savollarga javob beradilar. Bunda sinf o`quvchilari 3 guruhga bo`linadi.

Bunda o`quvchilar doskada osilgan quyunchaning savatidan sabzi teradilar . Har guruhdan 1 o`quvchi chiqib 1 tadan sabzi oladi va zabzining orqa tomonidagi savollarga javob beradi. Har guruhda 8 ta o`quvchi bo`lib, har qaysiga 1 tadan savol beriladi va qaysi guruhda qancha ballar to`plaganiga qarab, g`olib aniqlanadi. Ballarni qo`yishda shakllardan foydalanamiz:

Qizil doiracha - 5 ball

Ko`k to`rtburchak - 4 ball

Yashil uchburchak - 3 ball


3. Yangi mavzuga kirish:

Rasm ustida ishlash. Rasmni bolalar kuzatgach, o`qituvchi rasmda nimalar tasvirlanganini so`raydi.

- Rasmda nimalarni ko`ryapsiz?
- Unda qaysi fasl tasvirlangan?
- Kuz faslida tabiatda qanday o`zgarishlar bo`ladi?
- Kuz fasliga qaysi oylar kiradi?

O`quvchilar fikrini umumlashtirish. Matnni ifodali o`qib berish.

4. Yangi mavzu: KUZ



KUZ

Daraxtlarning yaproqlari tillaranga kira boshlaydi. Ertalab va kechki shabadada ular zarqanot qushchalarga o`xshab uchadilar. Yoz bo`yi shovqin solib, ba`zi joylarda loyqalanib oqqan suvlar sokinlashadi, tiniq tortadi . Kuzning dastlabki kunlarida Vatanimizda qo`shaloq bayram nishonlanadi . Eng katta bayramimizdan biri – Mustaqillik kuni 31-avgust –yozning so`ngi kunidan boshlab bayram qilina boshlaydi. Bayram sayllari poytaxtimizdagi Bosh maydondan boshlanib, shahar-u qishloqlarimizda davom etadi. 2-senrabr kuni yangi o`quv yili boshlanadi va shu kuni Bilimlar kuni ham nishonlanadi.


Kuz O`zbekistonimiz uchun pishiqchilik fasli hisoblanadi. Dalalarda paxtalar oppoq bo`lib ochiladi. Kuzgi olmalar , behi, yong`oq pishadi. Tunlari bog`larda “ to`p-to`p”qilib birovlar yurib chiqayotgandek tuyuladi. Bu – aslida daraxtlardan uzilayotgan mevalar tovushi . Shamollar xuddi “k-u-u –z”, deya uzun-uzun nafas chiqarib , bog`dan bog`ga yelib yurgandek tuyuladi. Polizlarda qovoq, lavlagi, turp pishadi. Erta ko`klamda ko`kka arg`imchoq solib uchib kelgan turnalar yana o`shanday chiroyli bir saf bilan issiq o`lkalarga uchib ketishadi.

Kuz o`rtalarida o`lkamizda Mehrjon bayrami nishonlanadi. Bu dalalarimiz bizga mo`l-ko`l hosil in`om etganiga shukronalik bayramidir.

Matn yuzasidan savol javob o`tkazish.

- Kuzda tabiatda qanday o`zgarishlar bo`ladi ?
- Kuzning dastlabki kunlarida o`lkamizda qanday bayram nishonlanadi ?
- Bog`larda qanday mevalar pishib yetiladi?

O`quvchilar fikrini umumlashtirib mazmunini gapirib berish.



5. Lug`at ustida ishlash.

Yaproq - barg

Sokin –tinch

6. Qayta o`qish va so`zlashga o`rgatish.

Sinf o`quvchilari mavzuni navbati bilan ifodali o`qiydilar va mazmunini gapiradilar.

7. Savol – javob o`tkazish:

1. Kuz fasliga qaysi oylar kiradi?
2. Kuzda qaysi qushlar boshqa o`lkalarga uchib ketadi?
3. Kuzda jonivorlar hayotida ro`y beradigan o`zgarishlar to`g`risida nimalarni bilasiz?
4. Kuz o`rtalarida o`lkamizda qanday bayram nishonlanadi?
5. “Kuz” fasli haqida qanday she`r va maqollarni bilasiz?

O`quvchilar fikrini umumlashtirish , kamchiliklarini to`dirish.

8. Test savollari .

1. 31-avgust qanday kun?
a) bilimlar kuni; b) mustaqillik kuni; d) o`qituvchikuni
2. Topishmoqning javobini toping.
O`rtog`im-ruchka, qalam,
Bir chiziq, katak-dalam,
Dangasaga kaptarman
A`lochiga o`rtoqman.
a) daftar; b) kitob; d) ruchka
3. Tojivoy qaysi asar qahramoni?
a) mukofot; b) sayoq bola; d) yodlasam bo`lmasmidi

4.O`quv qurollari berilgan qatorni toping.

- a) parta,doska,gul
- b) kitob,televizor
- d) daftar,ruchka,qalam

5.Kuz fasliga qaysi oylar kiradi?

- a) avgust,sentabr,oktabr
- b) sentabr,oktabr,noyabr
- d)oktabr,noyabr,dekabr

6) Eng yaqin do'stimiz kim?

- a) daftar b) kitob d) maktab

7) Mehrjon bayrami qachon bo'ladi?

- a) kuzda b) bahorda d) yozda


8) Topishmoqni javobini toping.

Qat-qat to'nli bu polvon,

Artib, yig'ladi javlon.


- a) sholg'om b) piyoz d)karam

Test javoblarini e`lon qilib o`quvchilarni rag`batlantirish.




1) Aqliy hujum asosida mustahkamlash.

- ## 2)“Izma – iz”o`yini



13


3)Boshqotirma



4) Klaster(tarmoqlash).









10. Tez aytish

Sardor sabzini savatga soldimi?

Sardor sabzini savatdan oldimi?

11. Maqollar aytishuvi.

Kuzning qozoni quyuq qaynar.

Yer haydasang kuz hayda,

Kuz haydamasang yuz hayda.

Nima eksang shu ko`karar.

Kuzning bir kuni qishning bir oyini boqar.

Daryo suvini bahor toshirar,

Odam qadrini mehnat oshirar.

Ter to`kib sochsang urug` ,

Yer seni qo`ymas quruq .

12. Topishmoqlar aytish.

1) Daraxtlaning barglari

Rang olar oltin misol

Qay faslda ,ayt, Muslim,

Yuz beradi shunday hol? **(Kuz)**

2) Polizda koptok bo`lib
Dumalab yotar, to`pmas
Dehqon bobom avaylab
Oziq , suv berar tepmas. **(Tarvuz)**

3)Gulsiz meva qiladi
Ko`p yesang til shiladi
Qir – g`ildirak oy kulcha
Bu nima, kim biladi. **(Anjir)**

Bir onadan yuz bola
Yuzovi ham bo`z bola. **(Uzum)**

Topishmoqlar tahlil qilinib, javoblarini topadilar.

13. O`quvchilarni rag`batlantirish.

14. Uyga vazifa: “Kuz” maqolasini o`qib, so`zlab berish. Kuz haqida maqol va topishmoq, she`lar o`rganish

15. Darsni yakunlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. 2- sinflar o`qish kitobi .**
- 2. DTS talablari.**
- 3. “Boshlang`ich ta`lim jurnali .**
- 4. “Dars muqaddas”.**

